

O‘ZBEKISTONNING XALQARO MEHNAT TAQSIMOTIDA TUTGAN O‘RNI

Temirov Shavkat Baxtiyor o‘g‘li

Termiz davlat universiteti 2-kurs magistr

gmail: shavkattemirov38@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rni haqida qisqacha ma’lumot yozilgan. Yana, O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, mamlakatimiz chet elga eksport qilinadigan va import qilinadigan mahsulotlar bayon etilgan.*

***Annotation.** This article contains brief information about the position of the Republic of Uzbekistan in the international division of labor. Also, information about Uzbekistan’s relations with foreign countries is given. In particular, the products exported and imported by our country are described.*

***Kalit so‘zlar.** xalqaro mehnat taqsimoti, o‘zbek moduli, iqtisodiy aloqa, korxonalar, mahsulot.*

Har bir davlat xalqaro miqyosida o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Qaysidir davlatlar yetakchi, yana qaysilaridir quyi ko‘rsatkichlarda qayd etiladi. Bu albatta mamlakatlarning rivojlanish darajasi bilan bog‘liq. Davlatlarning xalqaro miqyosida namoyon bo‘ladigan ko‘rsatkichlardan biri bu Xalqaro mehnat taqsimotidir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi ham xalqaro mehnat taqsimotida o‘z o‘rniga egadir. Xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatlarning bir-biri bilan tashqi iqtisodiy aloqalari muhim rol o‘ynaydi. Xususan, O‘zbekistonda davlat mustaqilligi e’lon qilingandan keyin uning tashqi iqtisodiy aloqalari sohasida yangi davr boshlandi. O‘zbekistonda ham

mustaqillikdan keyin bu borada jadallik bilan ishga kirishildi. Prezidentimiz tomonidan kerakli qaror va farmonlar e'lon qilindi.

O'zbekiston amalga oshirayotgan tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakli xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilishdir. Ular bilan valyuta-kredit munosabatlari, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, xo'jalik korxonalarini birgalikda qurish, oldi-sotdi ishlari kengaytirilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan Respublika tashqi savdo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa vazirligi tuzildi. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki ham o'z ishini boshlab yubordi.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi Respublikada xorijiy sarmoyalar bilan korxonalar, jumladan, qo'shma korxonalar, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar hamda ularning bo'linmalarini barpo etish, ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi haqida maxsus qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rniga ega bo'lishiga sabab bo'lgan holatlardan biri "O'zbek moduli" dir. Birinchi prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan bu modul beshta tamoyildan iborat. Ozbekiston Respublikasining so'ngi yigirma yildagi rivojlanishiga bu modul juda katta hissa qo'shdi. Ya'ni mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalari va ichki siyosatida deyarli shu modul tamoyillari orqali amalga oshirildi.

Mustaqillikdan keyin O'zbekiston Respublikasi ko'plab chet el firmalari bilan qo'shma korxonalar qurish xususida shartnomalar imzolagan. Chet el firmalari bilan hozirgi kungacha ham birgalikda faoliyat olib bormoqda. "Sovplastital" 30 turdan ortiq mahsulot, Xitoy Xalq Respublikasi bilan birgalikda qurilgan korxonalar termos, televizor. Ispaniya firmasi bilan hamkorlikda qurilgan korxonalar bir marta foydalanadigan shpris ishlab chiqarmoqda. AQSH bilan birgalikda kon chiqindilaridan oltin ajratib olinmoqda. Janubiy Koreyaning DEU firmasi, Asaka (Andijon), GFRning Mercedes-Bens firmasi Do'stlik (Xorazm) shaharlarida avtomobil zavodlari qurmoqda. Buxoroda Hindiston bilan birgalikda shifobaxsh o'tlardan dorilar tayyorlaydigan korxonalar. Bukada Turkiya bilan hamkorlikda akkumlyator zavodi

qurildi. Turkiya Respublikamizning ko'pgina viloyatlarida yengil va oziq-ovqat korxonalari qurmoqda. Bunday korxonalarni Pokiston, Hindiston va boshqa xorijiy davlatlar ham qurmoqdalar. Tashqi iqtisodiy aloqalar O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingandan beri tez sur'atlar bilan kengayib bormoqda.

O'zbekiston ham xorijiy mamlakatlarga anchagina keng iste'mol buyumlari, ayniqsa milliy gazlamalar, oziq-ovqat (o'simlik moyi, meva sabzavot, sharoblar va hokazo) mahsulotlar chiqaradi. Respublikamiz xorijiy Osiyo mamlakatlariga yanada kengroq xildagi sanoat mahsulotlari, asbob-uskunalar eksport qilmoqda. O'zbekiston Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan ko'p miqdorda turli xalq iste'moli buyumlari; mebel, kiyim-kechak, gazlama, poyabzal, ro'zg'or elektr asboblari, yozuv mashinalari servislar, attorlik mollari, tamaki va qandolat mahsulotlari, sabzavot hamda meva konservalari, sharob va hokazolar oladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan O'zbekistonga esa xalq iste'moli mollari, tropik va subtropik mevalar, choy, qora murch, yengil va oziq-ovqat sanoatining ayrim mahsulotlari keltiradi. Respublikamiz turli mutaxassis kadrlarni qo'shni mamlakatlarda xo'jalik obektlarini bunyod etishda qatnashmoqdalar. O'zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda yordam berish bilan birga ular xo'jaligining turli sohalari uchun milliy kadrlar tayyorlashda ham samarali ko'maklashmoqda. Respublikamizning bir qancha oliy o'quv yurtlarida Osiyo, Afrika mamlakatlarining yoshlari taxsil olmoqdalar.

O'zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar toboro kengayib bormoqda. Respublikamiz bu mamlakatlarga faqat qishloq xo'jalik mahsulotlarigina emas, balki anchagina miqdorda sanoat mahsulotlarini ham chiqaradi. Bu mahsulotlar orasida urug'lik chigit, pilla, ip va tabiiy ipak gazlamalar, paxta moyi, dori-darmonlar, buyan ildizi, meva konservalari, tomat pastasi va xakozalar ulushi ancha kattadir. Respublikamiz rivojlangan mamlakatlardan turli mashina va zamonaviy sanoat uskunalari oladi. Jumladan, Fransuz firmalaridan uysozlik kombinatlarini qurish hamda Toshkent shampandan zavodi uchun, Toshkent tamaki fabrikasi uchun kerakli jihozlarni oldilar. Shvetsiyadan Toshkent shaxarlararo avtomat

– telefon stansiyasi uchun jihozlarining bir qismi olindi. Italiyadan Chirchiq kaprolaktam zavodi uchun kerakli jihozlar olindi.

Respublikamiz iqtisodiyoti, fan va texnikasining tez rivojlanib borishi O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarda yanada keng ko‘lamda qatnashishiga zamin yaratadi. Mustaqil O‘zbekistonda xorijiy mamlakatlar ko‘rgazmalari o‘tkazilmoqda. Xususan, Respublikamizda 1991-yili Yaponiya (Chori firmasi), Xindiston, Bangladesh kabi mamlakatlar sanoat maxsulotlari ko‘rgazmalari o‘tkazdilar.

Xalqaro mehnat taqsimotida asosiy ko‘rsatkichlardan bir bo‘lgan xalqaro turizmni yanada rivojlantirish uchun O‘zbekistonda keng imkoniyatlar mavjud. Bu borada hukumatimiz tomonidan qonun qabul qilingan. Jumladan, har yili qaror va farmonlar e‘lon qilinmoqda. Bu albatta mamlakatimizning jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga xizmat qiladi. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalari halqlarning ma‘naviy va ma‘daniy boyliklarini rivojlantirishga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizning mustaqilligidan keyin ko‘plab xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatildi. Hozirda ham bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston xalqaro mehnat taqsimotida yetakchilardan biri bo‘lish uchun shart-sharoitlar yetarlidir. Mamlakatimizning rivojlanishi uchun biz ham o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Tabiiy boyliklardan, mavjud resurslardan oqilona foydalanishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D. A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.; - 2011
2. Rasulova D.V. Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishishshg nazariy asoslari. T.: Moliya - 2010. 98-b.
3. Tojjeva Z.N. O‘zbekiston aholisi, o‘sishi va joylanishi (1989-2009 yy.). Ilmiy monografiya. T.; - 2010
4. Uzbekistan: Otsenka urovnya jizni naseleniya. Dokument Vsemirnogo Banka. May 2003, tom 11, s. 33.
5. Qurboniyozov R. Geografiya o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - Urganch, 2001. - 200 b.
6. Fuqarolarning mehnat migratsiyasi masalalarida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha yakuniy hisobot. Toshkent 2018